

LUQMON BO'RIXONNING "IMOM MOTURIDIY" ROMANIDA KONFLIKT MASALASI

Ro'ziyeva Yulduz Qahramon qizi

ToshDO'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 1-kurs magistranti
yruziyeva80@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Luqmon Bo'rixonning adabiyotshunoslar tomonidan falsafiy-aqidaviy roman deb e'tirof etilgan "Imom Moturidiy" asarida qahramonlar psixologizmining tasvirlanishida konfliktning o'rni misollar vositasida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: konflikt, maydon nazariyasi, detal, psixologik konflikt.

Abstarct. In this article, the role of conflict in the description of the psychologism of the characters in "Imam Maturidi", recognized as a philosophical-ideological novel by literary experts, is shown through examples.

Keywords: conflict, Field Theory, detail, psychological conflict.

Inson hayoti muttasil to'qnashuv va ziddiyatlardan iborat. Ayni shu hayotiy haqiqatning badiiy asarga evrilishi adabiyotshunoslikda konflikt istilohi bilan ataladi. Konflikt badiiy asarning o'qishligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri bo'lib, shaxslararo yoxud shaxs bilan jamiyat o'rtasida sodir bo'ladigan to'qnashuvni anglatadi. Konflikt yozuvchiga qahramonlar ruhiyatini ochishda katta yordam beradi. Konflikt asar qahramonining biror shaxs, jamiyat yoki o'zining o'y-fikrlari bilan to'qnashuvi tasviridan yuzaga keladi.

Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanida qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar zamirida diniy konflikt yotadi. Ushbu asarga so'zboshi yozgan O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurov buni quyidagicha izohlaydi: "Muallif o'z romanida o'sha zamonlar avj olgan diniy-ilmiy, ilohiy nuqtayi nazarlar juda keskin bayon qilingan munozaralar muhiti va oqimlarini ichidan ko'rsatadi, imon-e'tiqod o'sha davr kishilari uchun qanchalar hayot-mamot qadar ahamiyatli bo'lganiga e'tibor qaratadi".

Ijodkor Abu Mansur Moturidiy, Idris Shomiy, Vosiq La'liy, Mastonbibi kabilarning ruhiy dunyosini chizishda konflikt bilan ustalik bilan foydalanadi. Bu esa badiiy haqiqatning tarixiy haqiqatga muvofiqligini ta'minlabgina qolmasdan, asarning g'oyatda dramatizmga boyligini ham ta'minlaydi.

Nazariy manbalarda konflikt va uning turlari haqida bir qancha fikr va mulohazalar berilgan. Jumladan, akademik I. Sultonning quyidagi ta'rifi e'tiborga loyiq: "Konflikt badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g'oyalar, kayfiyatlar kurashidir. Syujetida konflikt bo'lmagan asar ta'sirchan bo'lmaydi, chunki unda hayotiy haqiqat yorqin va izchil tasvirlanmaydi".



Adabiyotshunos D. Quronov badiiy asar voqelikni badiiy aks ettirgani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud to‘nashuvlarning bari unda badiiy aksini topishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u badiiy konfliktning uchta turini farqlaydi:

1. Xarakterlararo konflikt.
2. Qahramon va muhit konflikti.
3. Ichki (psixologik) konflikt.

“Imom Moturidiy” romanida o‘rni bilan konfliktning uchala turi aralash holda keladi. Masalan, Vosiq ibn Qosim – Abu Mansur bilan ziddiyatda bo‘lgan shaxslardan biri. Hayotiy vaziyat uning Moturidiy mansub jamiyat va muhitga nisbatan munosabatini salbiy tomonga o‘zgartirishga majbur etadi. Ikki qahramonni bog‘lab turgan do‘stlik rishtasi Vosiq La‘liy botinida to‘xtovsiz kurashlarni vujudga keltiradi.

K. Levinning Maydon nazariyasiga ko‘ra, konflikt psixik muhitda sodir bo‘ladi. Levinning fikrini tizimli ravishda quyidagi formulada shakllantirish mumkin: x (xulq-atvor), sh (shaxs) va m (muhit). Bu formula inson xulq-atvorini anglashda muhim sanaladi. Xususan, ijtimoiy xulq-atvor ma’lum shaxsiyatlar va ular yashagan muhit o‘rtasidagi munosabat natijasidir. Demak, inson xulq-atvori ikkita elementning integral hosilasidir. Bu holatda muhit shaxsiy xarakterlar bilan qorishib ketadi. U har bir insonning o‘tmishi, buguni va ertasiga aloqador voqeliklardan iborat.

Luqmon Bo‘rixon qahramonlarini o‘zaro, o‘z-o‘ziga va muhit bilan ziddiyatli kurashlarda tasvirlar ekan, haq va haqiqatning mavjudligi, ezgulikning barqarorligi va yovuzlikka jazo borligiga ishora qiladi. Bunda muallif imom Moturidiyni konfliktlar markaziga qo‘yish orqali uning bosh qahramon maqomiga munosib ekanligini bir karra tasdiqlaydi.

Abu Mansurning bolalik va o‘smirlik davrlaridagi o‘rtog‘i Vosiq ibn Qosim asardagi asosiy qahramonlardan biridir. Yozuvchi romanning ilk sahifalaridayoq uni Moturidiy obraziga qarama-qarshi qo‘yadi. Bu hol, ayniqsa, ularning turli tabaqaga mansub oila farzandlari ekanligida yaqqol ko‘rinadi. Lekin ayni holat dastlab ikki do‘stning munosabatlariga raxna sola olmaydi. Boy va kambag‘al bolalarning o‘rtoq tutinishi bilan bog‘liq syujetga ega bo‘lgan asarlar o‘zbek adabiyotida talaygina. Bunga Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar va Nasim obrazlarini misol qilib keltirish mumkin.

Keyinchalik oliy dargoh – Madrasayi Peshvozdagi domlarning Abu Mansurni barcha talabalardan ko‘ra ko‘proq ardoqlashlari Vosiq ibn Qosim yuragini kuydirgan hasad olovini yondirib yuboradi. Quyidagi monologda konflikt vositasida qahramon ruhiyati ochib beriladi: *“Ha, men qadrdon birodarimga hasad qilardim, buni bilganmen, – deya o‘yladi Vosiq ibn Qosim hanuz chirkin kunda ustida besaranjom o‘tirarkan, – ammo o‘zimni bilmag‘anga olganmen. Aslida, uni dam sayin, kun sayin yomon ko‘ra boshlaganmen, va lek doimo do‘stona iljayib turganmen”*.

Nutqning monologik shaklida konfliktning inson ongida kechadigan turi – psixologik konflikt yuzaga keltiradi. Ushbu konfliktga shaxsning o‘ziga yoxud ma’lum vaziyatga bog‘liq omillar sabab bo‘ladi. Shaxsiy omillarga biologik va psixologik omillar, vaziyatga bog‘liq omillarga esa ijtimoiy va axloqiy omillar kiradi. Bunday konfliktlar natijasida shaxsda umidsizlik, tushkunlik, g‘ayirlik, jahldorlik singari jihatlar namoyon bo‘ladi.

Ayrim tuyg‘ular borki, inson qalbining tub-tubida yashaydi. Bunday tuyg‘ularni tirik ekanligini favqulodda holatlardagina sezish mumkin. Masalan, qozikalondan yangi hokimning imomni jazolash niyatida Moturidga ketganligi xabarini eshitganda Vosiq ibn Qosim ruhiyatida qarama-qarshi kurashlar avj oladi: *“Vosiq La’liy og‘ir, ezgin qadamlar ila madrasa tomon yurdi. U chindan-da eshitganlaridan tashvishga tushgan edi. Darg‘azab hokimning qilichi oldida sarpoychan bosh egib turgan Abu Mansur jonlanar ekan, ko‘nglida o‘kinchmi, shafqatmi, shunga o‘xshash g‘alati hislar bezovta g‘imirlab qo‘yardi”*. Bu esa o‘z navbatida qahramon qalbida mudom tirik bo‘lgan do‘stlik tuyg‘usining g‘imirlab qo‘yishidir.

Har qanday jamiyatda insonlarning turli axloqiy va ijtimoiy sifatlarga egaligi shaxslararo ziddiyatlarga olib keladi. Shaxsning qaysi muhitda shakllanganidan qat’iy nazar, u ayni paytda o‘zi mansub bo‘lgan jamiyat qonun-qoidalariga munosabat bildirishi kerak bo‘ladi. Shu sababli uning qarashlari boshqalarning fikrlash tarzi va hayotiy tutumlariga mos kelavermaydi. Ushbu holatlar ichki konfliktga sabab bo‘lishi ham mumkin. Bunda inson o‘z e’tiqodiga sodiq qolishga urinadi. Ammo muhit uni jamiyat standartlariga moslashtirishga majbur qilmoqchi bo‘ladi. Konfliktning yuqoridagi ko‘rinishlari oilaviy munosabatlarda ham keng tarqalgan. Axir oila turfa xarakterga ega bo‘lgan ikki va undan ortiq kishidan iborat jamiyatning eng kichik bo‘g‘inidir.

Muallif o‘z asarida er-xotin o‘rtasida sodir bo‘ladigan ziddiyatli munosabatlarni yoritishga ham harakat qiladi. Bu holat imom Moturidiy va uning rafiqasi Mastonbibini obrazlari misolida ochib beriladi. Nikohning ilk kechasida Mastonbibining chorbog‘dagi qiz emasligini bilgan Abu Mansurning butun vujudida ziddiyatli kurash kechadi. Uning ko‘nglida erlik va oshiqlik o‘rtasidagi ayovsiz kurash kechadi. Natijada imom Moturidiy butun umri davomida zohiran erlik, botinan esa oshiqlik maqomiga loyiq bo‘lishga urinadi.

Mastonbibining Abu Mansurga nisbatan ziddiyatli munosabati nikohdan avval shakllangan edi. Chunki zaifgina madrasa tolibining xayolan tasavvur etgan badavlat va baquvvat shahzodalarga o‘xshamasligi konfliktning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Chimildiqdagi holat esa ushbu konfliktning kuchayishiga olib keladi: *“Bu o‘zgani xayol etgan!”* – shu o‘y butun vujudini tilkalab o‘tdi Mastonbibining. O‘sha tilkalangan joyidan go‘yo qonu zardob oqdi. O‘sha tilkalangan vujud, mana, salkam yigirma yildirki, hanuz bitmaydi ”.

Asar markazida turuvchi qahramonlardan yana biri Idris Shomiy bo‘lib, uning to‘qnashuvlarga to‘la hayoti muallif tomonidan ishonarli tasvirlanadi. Otasining musulmonlar tomonidan o‘ldirilganligiga guvoh bo‘lgan yosh Aron



“Muqaddas fitna” yordamida Idrisga aylanadi. Shu kundan boshlab, u ushbu guruh maslaklarining targ‘ibotchisi va tashviqotchisi sifatida musulmon e‘tiqodiy qarashlariga qarshi zimdan kurasha boshlaydi. Ayni shu kurash uning Imom Moturidiy bilan konfliktga kirishishiga sabab bo‘ladi: *“To‘satdan yo‘liga bir raqib chiqqanday bo‘ldi. U dinda, e‘tiqodda Abu Hanifa mazhabini mahkam tutgan, Bog‘doddagi ash‘ariylarga maslakdosh Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy edi. Uning taqvosi, obidligi, bilimdonligi tildan tilga ko‘chib yurardi. Idris Shomiy ilk bor Havori amirdagi yig‘inda imom Moturidiyning mahobatini, ulug‘vorligini his etgan edi”*.

Luqmon Bo‘rixonning mahorati shundaki, u qahramonlararo ziddiyatlarni yuzaga keltirgan sabablarni ifodalashda detallardan unumli foydalanadi. *“Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya‘ni u hamisha predmetlilikni ko‘zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o‘sha obraz ko‘z oldimizda butun holda namoyon bo‘ladi”*. Masalan, roman personajlaridan biri Xolid Xalajning Imom Moturidiy bilan ziddiyatga kirishishiga sirli maktub sabab bo‘ladi. *“Dunyoyi dunni zer-u zabar aylashi mumkin, biroq qog‘ozdagi zer-u zabarga yuzlansa, boshi aylanib, ko‘zi tinadi”*gan Samarqand hokimi Xolid Xalaj taqdiri misolida ilmsizlikning ulkan fojialarga olib kelishi ko‘rsatiladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, romanda qahramonlararo ziddiyatlar zamirida diniy konflikt masalasi yotadi. Yunon falsafasini o‘zlariga maslak qilib olgan mu‘taziliylar mantiq ilmini zo‘r berib targ‘ib qiladilar. Islomni to‘la-to‘kis anglamagan musulmonlar ularga ko‘r-ko‘rona ergashadilar. Natijada din bo‘yicha ularda nomaqbul qarashlar va savollar paydo bo‘ladi. Ushbu vaziyatda mu‘taziliylarga qarshi maydonga imom Moturidiy boshchiligidagi ahli sunna val jamoa keladi.

Moturidiy o‘z nutqlaridan birida mantiq ilmi xatolar, adashishlar manbayi ekanligini va eng muhimi, barcha murosasiz qarama-qarshiliklarning asosida mazkur mantiq ilmi yotishini ta‘kidlaydi. Shuningdek, mantiqni haqqa olib boradigan yagona yo‘l deya hisoblagan kishilarning ko‘p xudolikka e‘tiqod qilganliklari va mushrik holda yashab o‘tganliklarini ham aytib o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, “Imom Moturidiy” romanida ko‘pincha qahramonlararo konflikt sodir bo‘ladi. Konfliktning ushbu turi vositasida ijtimoiy muhit bilan shaxs ziddiyati sabablari ochib beriladi. Ba‘zi o‘rinlarda qahramon ongida kechadigan to‘qnashuvlar ham shaxs psixologik holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.Sulton. *Adabiyot nazariyasi*. T: O‘qituvchi, 2005.
2. D.Quronov. *Adabiyotshunoslikka kirish*. T: Meros, 2004.
3. Л.Бўрихон. *Имом Мотуридиъ*. Т: Адабиёт, 2022.
4. Rezki A. A., Sukardi W. & Iskandar. *Psychological conflict of the main character in Paul Greengrass’ movie “Captain Phillips”*. Journal of English Linguistics and Literature Studies, 2022.

5. Yogi P. P. *Kurt Lewin's inner conflict faced by Mr. and Mrs. Wells in Colleen Hoover's all your perfects*. Universitas Islam Negeri Maulana Malik Ibrahim Malang In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Sarjana Sastra (S.S), 2022.

6. Abdul B. & Lu'lu' A. *The Psychological Conflict of Main Actor in The Suffragette Film by Sarah Gavron Based on Kurt Lewin's Perspective*. Ahmad Dahlan International Conference Series on Education & Learning, Social Science & Humanities (ADICS-ELSSH), 2019.

7. Corr P. J., & Matthews, G. *The Cambridge handbook of personality psychology*. (1. publ. ed.). Cambridge: Cambridge University Press, 2009.